


# ТАРАККИЁТ ТАДҚИҚОТЛАРИ

2023  
ЯНВАРЬ

АНЖУМАН | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCE

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
АНЖУМАНЛАР  
1- СОН (2)



# ТАРАҚҚИЁТ ТАДҚИҚОТЛАРИ: ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР

## МУНДАРИЖА

### САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИ

#### ЙЎЛЧИЕВА Моҳинса Маҳмудилло қизи

Музиқа ўқитувчисининг мусиқий педагогик маҳорати.....3

### ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

#### ЮНУСОВА Нозима Миркамаловна

Бошқарув ҳисобида бюджетлаштиришнинг айрим масалалари.....6

#### ЮНУСОВА Нозима Миркамаловна

Бошқарув ҳисобини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари.....9

### ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

#### ТЎЛҚИНБОЕВ Ғанижон Музаффар ўғли

Олий таълим муассасаларида жисмоний тарбия дарсларини замонавий педагогик методлардан фойдаланган ҳолда дарсларнинг самарадорлигини ошириш.....11

#### АРТИКОВА Наргиз Шухратовна

Бошланғич синф ўқувчиларига Пирлс дастури асосида таълим бериш.....13

### ТАРИХ ФАНЛАРИ

#### АБДУЛЛАЕВА Шаҳноза Нурматовна

Ўзбекистонда адвокатура институтининг шаклланиши тарихининг айрим хусусиятлари.....17

### ГЕОГРАФИЯ ФАНЛАРИ

#### МАЖИТОВ Турғунали Анвар Ўғли

Таълим муассасаларида география фанини ўқитиш жараёнида учрайдиган муаммолар ва уларнинг ечимлари.....22

### ТЕХНИКА ФАНЛАРИ

#### ШОГУЛОМОВ Д.Э.

Геометрическая теория 3d-моделирование.....25

#### АБДУЖАББОРОВ Обиджон, ЖЎРАБОЕВ Тохирбек

Bibliometric analysis using the iso 17025 standard.....29

#### АЗИМОВ Сарварбек Қаюмжон ўғли

Махаллий ашё ва энергетик ресурслардан фойдаланиб янги (гкпм) яратишнинг истиқболли технологиялари таҳлили.....33

## **ТАРАҚҚИЁТ ТАДҚИҚОТЛАРИ: ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР**

### **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA PIRLS DASTURI ASOSIDA TA'LIM BERISH**

**ARTIKOVA Nargiz Shuxratovna,**  
*Toshkent viloyati Chirchiq Davlat  
pedagogika universiteti o'qituvchisi*

Mamlakatimizda ta'lism tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umume'tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lism tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta'lism tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lism va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lism sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lism sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda xorijiy tillarga bo'lgan e'tibor ta'lism sifatini yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, o'qitishning ilg'or usullarini joriy etish yo'li bilan umumta'lism mifiktab o'quvchilarining xorijiy tilni egallagan va muloqot qila oladigan qilib yetishtirish bugungi kun o'qituvchisining yuksak maqsadlaridan biridir. Ushbu maqsadni ko'zda tutgan holda, ta'lism tizimida xorijiy tillarni o'rganayotgan o'quvchilarning muloqot jarayonidagi kamchiliklarga o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish mobaynida barham berish, ularning o'quv mashg'ulotlaridagi tayyorgarligini oshirish masalasini ta'lism tizimining bir necha bosqichlarida tashkil etiladigan ta'lism tarbiya jarayoni bilan bog'liq holda tadqiq etish maqsadga muvofiqliрdir.

Biroq, bir narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, umumta'lism mifiktab o'quvchilariga hozirgi zamon innovatsion ta'lidian erkin foydalana olishlari va tushunishlari uchun professor-o'qituvchilar ham o'z navbatida yangi pedagogik texnologiyalardan xabardor bo'lishlari va ularga shu bilimlarni mahorat bilan yetkazishlari lozim. PIRLS (Xalqaro o'qish savodxonligining yutuqlari) sinovini boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn o'qish va tushunish sifatini baholashga qaratilgan. TIMSS singari, u milliy ta'lism tizimidagi farqlarni ko'rsatadi. PIRLS so'rovi har besh yilda bir marta o'tkaziladi va allaqachon to'rt marta o'tkazildi. 2001, 2006, 2011 va 2016-yillar.

Bugungi kun zamon talabi bilan, barcha ta’lim muassasalari qatorida umumta’lim maktalarining o‘quvchilari ham xorijiy tillarni mukammal bilishi va erkin tarzda muloqot qila olishi, muhim masalalardan biriga aylanmoqda.

Sababi, o‘sib kelayotgan yosh avlod chet tillarni chuqur o‘rganib, muloqotga kirisha olsa, xalqaro dasturlardan foydalana olsa, xalqaro munosabatlar va hamkorlikni rivojlantirishi mumkin. Bunday PIRLS singari xalqaro dasturlarni bizning ta’lim tizimimizga kirib kelishi quvonarli holdir, chunki yangi pedagogik o‘qituvchi va o‘quvchini intensiv rivojlantirish, ularning o‘zaro faoliyati va muloqotini demokratlashtirish, ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish, o‘quvchini o‘z-o‘zini shakllantirishga yo‘naltirish, ta’limning moddiy texnika bazasini modernizatsiyalash kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish, ta’lim maqsad va mazmunini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ta’lim jarayonida mavzuga oid slaydlar, rasmlar, videolavhalar multimedia va internetdan foydalanish dars mashg’ulotlarini ayniqsa, boshlang’ich sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan mashg’ulotlarini yanada qiziqarli va samarali bo‘lishiga zamin yaratadi. O‘quvchilarning xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqlishi yanada ortib boradi. Ta’lim sifatini yaxshilash va oshirish jamiyatning barcha sohalarida faoliyatni yaxshilashga olib keladi. Yangilik kiritish, an’anaviy va noan’aviy usullardan, interfaol o‘yinlardan qo‘llash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Respublikamizning yetuk olimlari chet til muallimligini kasb-u kor sifatida tanlaganlar zimmasiga ushbu tilni o‘qitish nazariyasidan mukammal xabardor

bo‘lishdek vazifa yuklanishini alohida ta’kidlaganlar.

Shuning bilan birgalikda, chet til o‘qitish maqsadi, mazmuni va nutq faoliyati turlaridan ham yetarlicha bilimga ega bo‘lish talab etiladi. Nutq faoliyati turi bo‘lmish gapirish bu o‘quvchi o‘z fikrini og’zaki bayon etish tushuniladi.

Professor Jalolov Jamol Jalolovich Chet til o‘qitish metokasi kitobida

- 1) fikr bayon etish jarayoni,
- 2) aytish,
- 3) og’zaki muloqot,
- 4) fikr izhori natijasi kabi ta’riflarni gapirish metodik tushunchasi qamroviga kirgizganlar.

Gapirish oqibatida fikr aytildi, ushbu fikrni bayon etish niyati esa gapirishga sabab bo‘ladi. Savolga berilgan qisqa javob ham, butun bir monolog ham fikr bayoni hisoblanadi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarinig nutqiy muloqotga bo‘lgan moyillik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Lingvodidaktika va pedagogika fanlaridan bilamizki, umumta’lim məktəb o‘quvchilarinig ba’zi bir qismi fikr bayon etishga qiziquvchi va xarakat qiluvchi bo‘ladi, boshqalari esa nutqiy faoliyatga kamroq diqqat beradigan toifalarga ajraladi.

Yanayam aniqroq qilib gapiradigan bo‘lsak, nutq faoliyati turlaridan bo‘lmish tinglab tushunish, o‘qish va yozuv malakalariga qobilyatlari yuqoriroq darajada bo‘ladi.